
Zakovatlilar bahsi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida" PQ-361-sonli Qarorini amalga oshirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturning 18-bandida "Akademik litseylar, professional va oliy ta'lim muassasalarida allomaning ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli tillardagi esse, insho, viktorinalar tanlovlarini tashkil etish" vazifasi belgilangan.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida SamDCHTI akademik litseyida tahsil olayotgan bir guruh faol. iqtidorli va bilimdon yoshlar o'rtasida "Zakovat" intellektual o'yini qizg'in bahs-munozara tarzida o'tkazildi. O'quvchilarning bo'sh vaqtlari mazmunli o'tishi hamda teran fikrlash qobiliyatlarini yanada oshirishda bu kabi o'yinlarning ahamiyati beqiyosdir.



SamDCHTI akademik litseyi matbuot xizmati